



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 2 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK .....	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .....	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI .....	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....	79-84

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH .....	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ	
УЗБЕКИСТАН .....	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ	
XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI .....	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	
YO'LLARI .....	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI	
OSHIRISH YO'LARI .....	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI .....	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI	
TAKOMILLASHTIRISH .....	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	
MASALALARI .....	161-166
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING	
ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI .....	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT	
TARAQQIYOTINING ASOSI .....	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE	
IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI .....	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY	
ASOSLARI VA AHAMIYATI .....	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI .....	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .....	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA .....	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI .....	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI .....	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI .....	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI .....	282-285

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH ..... 290-296	
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI .....	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES .....	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI .....	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING .....	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) .....	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI .....	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....	379-385
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH .....	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI .....	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI .....	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI .....	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI .....	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'iy INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ .....	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI .....	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI .....	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI .....	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....	537-542
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH .....	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA .....	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI .....	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI .....	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI .....	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI .....	626-629

**07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES****Received:** 25 January 2025**Accepted:** 1 February 2025**Published:** 10 Febrary 2025*Article / Original Paper***THE MERITS OF A.L.KUN IN THE PRESERVATION AND RESEARCH  
OF ARCHIVAL DOCUMENTS OF THE KHANATE OF KHIVA****Matkarimova Sadokat Maksudovna,**

Head of the Department of History at Mamun University,

Doctor of Historical Sciences,

Associate Professor

E-mail: [sadoqatmaksudovna1982@gmail.com](mailto:sadoqatmaksudovna1982@gmail.com)

**Abstract.** This article examines the dedication of the Russian orientalist A.L.Kuhn in preserving and analyzing the archival documents of the Khanate during his campaign in Khiva in 1873. The great importance of these sources in the study of the history of Khorezm was also analyzed.

**Keywords:** Khiva, St. Petersburg, Russia, empire, khanate, orientalist, archive, manuscript, library, fund.

**SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI  
SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI****Matkarimova Sadoqat Maqsudovna,**

Ma'mun universiteti

"Tarix" kafedrasi mudiri,

tarix fanlari doktori, dotsent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Rossiyalik sharqshunos A.L.Kunning Xivaga qilingan 1873-yildagi yurishda xonlik arxiv hujjatlарини saqlash, tahlil qilishdagi fidoyiligi tadqiq qilinadi. Shuningdek, ushbu manbalarning Xorazm tarixini o'rganishdagi katta ahamiyati borligi ham tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Xiva, Sankt-Peterburg, Rossiya, imperiya, xonlik, sharqshunos, arxiv, qo'lyozma, kutubxona, fond.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N01>

**Kirish.** Ma'lumki, 1873-yil may oyida Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi paytida xon saroyidagi mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyatga oid buyum va ashyolar talon taroj etilgani Xorazmlik tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajaratay Xorazmshohiy" asarida, shuningdek yuqoridagi harbiy yurishda kuzatuvchi sifatida qatnashgan amerikalik jurnalist—"Nyu York Jerald" gazetasining muxbirni Mak Gaxanning "Oks sohilidagi janglar" kitobida haqqoniy tasvirlab o'tilgan.

Ana shu Xiva yurishida sharqshunos A.L.Kun ham qatnashib bevosita xon saroyidagi talon taroj paytida noyob qo'lyozma asarlar, xonlik arxiviga oid hujjatlarni to'plash va ularni dastlab Toshkentdag'i o'zi ishlayotgan Turkiston general gubernatorlik mahkamasiga, keyin esa Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli davlat xalq kutubxonasiiga yuborish ishlariga

boshchilik qiladi. Vaqt o'tib ushbu hujjatlar Xorazm tarixini o'rganishda benihoya katta ahamiyatga ega bo'ldi.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida, "Turkestanskiye vedomosti" gazetasi, A.L.Kunning shaxsiy arxivi, O'zbekiston Milliy arxivi, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonasi fondlari, P.Ivanov va M.Yo'ldoshevning Xiva xonligiga oid asarlarida sharqshunos A.L.Kunning tarix va fan oldidagi fidoyilarcha xizmatlari e'tirof etilgan. Ushbu manbalarni bir-biriga taqqoslash orqali A.L.Kunning hayoti va faoliyati, fidoyiligi to'g'risida haqqoniy fikr yuritish mumkin.

**Muhokama.** "Aleksandr Lyudvigovich Kun 1840-yilda hozirgi Ozarbayjonning Shamog'iy shahrida o'qituvchi oilasida tug'ilgan edi. Uyezd maktabida ishlovchi uning otasi ko'pchilikni hayratga solib, 14 ta tilni bilar, onasi esa arman millatiga mansub bo'lib, Eronning Tabriz shahridan bo'lган. Yoshligida otasi singari tillarni o'rganish va tarix ilmiga qiziqqan Aleksandrning quvonchi afsuski uzoqqa bormaydi-endigina 14 yoshga to'lganida ota-onasi vafot etadi. Shundan so'ng otasining ilm qadriga yetadigan do'stlari Aleksandrning iqtidorini sezib, 1855-yilda uni hukumat hisobidan o'qish uchun Stavropol guberniyasidagi gimnaziyaga yuborishadi. Gimnaziyani tugatgan 1860-yilda esa u Sankt-Peterburg universitetining sharqshunoslik fakultetiga qabul qilinadi. A.L.Kun universitetni tamomlagach, mashhur sharqshunos V.V.Grigroryevning maslahati va talabi bilan dastlab Orenburg general gubernatorligiga, u yerdan esa 1868-yil 24-noyabrda O'rta Osiyoga yuboriladi" [1].

Ma'lumki, bu paytda Qo'qon xonligining ko'plab hududlari, Buxoro amirligi zabit qilingan, Xiva esa navbatdagi nishon edi. Oradan ko'p vaqt o'tmadidi. 1873-yilda Xorazm ham bosib olindi. Aleksandr Lyudvigovich ana shu Xiva yurishida xizmat taqozosiga ko'ra Turkiston general gubernatori K.P.Kaufman yonida birga bo'ldi. Bosib olinish jarayonlaridagi voqealarning, urush dahshatlarining guvohi bo'ldi. Eng asosiysi va fan oldidagi uning unutilmas xizmatlari shundaki, 29-may kuni Xiva xonining saroyi talon-taroj etilgach esa u yerdan A.L.Kun quyidagi hujjat va buyumlarni qo'lga kiritdi.

Bu haqda u 1873-yil 18-dekabrda chop qilingan "Turkestanskiye vedomosti" gazetasidagi "Xiva safari vaqtida qilingan ilmiy ish" nomli maqolasida shunday yozadi: "Xiva ekspeditsiyasi vaqtida men quyidagi ilmiy materiallarni to'pladim: xon saroyini musodara qilish vaqtida sharq qo'lyozmalaridan iborat 300 kitob to'plandi, shulardan 129 tasi sarlavhalik 140 tomdan iborat tarixiy qo'lyozmalar, 30 tomdan iborat sharq shoirlarining devonlari, 50 tomdan iborat 40 ta huquqiy va diniy asarlardir. Bundan tashqari 18 tacha "Qur'on" va 50 ta dars kitoblari ham to'plandi. Xon saroyi musodara qilinganida, qo'lyozmalar bilan birgalikda hujjatlar ham to'plandi. Bu hujjatlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlar hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarini kiritish mumkin. Daftarlari orasida pul soliqlariga doir yozuvlar (solg'ut), zakot daftarlari va Matmurod devonbegining xon hujjatlarini to'g'risidagi hisobotlari bor.

So'ngra shu hujjatlar orasida Buxoroda, G'azalida, Istanbulda va boshqa joylarda savdosotiqlar bilan yashab turgan xivaliklarning xonga yuborgan iltimosnomalari, nizolarini hal qilib berish to'g'risida yozilgan imkoniyatnomalar, biror mansab berish to'g'risidagi iltimosnomalar va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost-Indiya general-gubernatori Narsbrukning xati, Turkiya sultonining xatlari va farmonlari, rus elchisi podpolkovnik

Danilevskiy bilan Xiva xoni o'rtasida tuzilgan ahdnama hamda Turkiston general-gubernatori tomonidan xonga yuborilgan bir necha maktub bor”[2].

Sharqshunos A.L.Kun ana shu ma'naviy boyliklarni Xivadan Toshkentga olib kelib, ayrimlari bilan to'liq, ba'zilarining esa mazmuni bilangina tanishib chiqadi. Tabiiyki, olim bisotidagi ko'plab hujatlarni Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli Xalq kutubxonasiiga taqdim qiladi, ayimlarini esa sharqshunos bo'lgani bois tanishib chiqish maqsadida o'zida olib qoladi. Turkiston general gubernatori K.P.Kaufman esa Xalq Kutubxonasi direktori nomiga 1874-yil yanvarida xat yozib unda shunday fikrlarni bildirgandi:

“Hurmatli Ivan Davidovich! O'tgan yilgi Xiva ekspeditsiyasi vaqtida xon saroyi musodara qilinganida mening huzurimda bo'lgan Nadvorniy Sovetnik, sharqshunos A.L. Kun mening topshirig'imga binoan Sharq qo'lyozmalarini to'plagan edi. Ushbu maktub bilan ilova qilingan ro'yxatga binoan mazkur qo'lyozmalar kolleksiyasini yuborib, Imperator Xalq kutubxonasidan, bu kolleksiyani rus qo'shinlarining 1873-yildagi Xivada qozongan muvaffaqiyatlarining ilmfanga keltirgan tuhfa tariqasida qabul qilinishini iltijo qilaman. Chin hurmat va astoydil sadoqat bilan kaminalari” (IV AI AN Rossiyskiy federatsiya Fond 33, p 16 ).

Oradan ikki yilcha vaqt o'tib “Xalq kutubxonasining 1876-yilgi hisoboti”da bu haqda ham to'xtalib o'tiladi: “Kutubxonaning faxriy a'zosi general-adyutant K.P.Kaufman O'rta Osiyo xonlarining hujjatlari va yozmalari to'plamini sovg'a qilib yubordi, bu hujjatlar va yozmalar Iskandarko'l, Shahrисabz va Xiva ekspeditsiyalari vaqtida to'plangandir”.

“Xullas, A.L. Kunning xizmatlari bois Rossiya sharqshunosligi juda katta ma'naviy boylikka ega bo'ldi. Aleksandr Lyudvigovich Kun esa 1876-yildan 1882-yilgacha Turkiston general gubernatorligining maktablar bosh noziri bo'lib ishlaydi. Ya'ni, o'lkada tashkil qilingan rus-tuzem maktablari faoliyati bilan shug'ullanadi va davr talabiga ko'ra, bunday maktablarni yanada ko'paytirish imkoniyatlarini izlaydi.

Turkiston general gubernatorligi mahkamasida ishlayotgan A.L.Kun 1882-yilda Peterburgga yuborilib, u yerda bir oz vaqt ishlaydi. Ma'lumki, bu paytda uning Xiva yurishidan olib kelingan hujjatlarning ko'pchilik qismi Peterburgdagi Davlat Xalq Kutubxonasiда saqlanayotgandi. Xivadan olib kelingan va Toshkentda o'rganish niyatida olib qolgan hujjatlarning ikkinchi qismini A.L.Kun o'zi bilan birga Sankt-Peterburgga olib kelib kvartirasida o'qib o'rganish maqsadida saqlab qo'yadi.

Ammo u Sankt-Peterburgda ozgina vaqt faoliyat ko'rsatgach, Vilno shahridagi maorif okrugi nozirining yordamchisi vazifasi ishga yuboriladi. Biroq sharqshunos sifatida poytaxtda ishlashni ma'qul topgan, bevosita Xorazmdan olib kelingan hujjatlarni tadqiq qilishga endigina imkon topayotgan A.L. Kun o'zining bu ishga tayinlanganidan norozi edi. U bu haqda 1886-yil 4-iyulda sharqshunos V.V.Stasovga yuborgan xatida “meni sharqshunos sifatida dastlab Orenburgga ishlatishga va'da bergen edilar. Lekin vakansiya yo'q degan bahona bilan Vilnoga yubordilar”deya yozadi. Sharqshunos sifatida V.V. Stasov ham Vilnoga xat jo'natib A.L.Kun qo'lida qanday hujjatlar borligiga qiziqadi.

A.L.Kun esa V.V.Stasovga shunday maktub yozib yuboradi: “1876-yilga qadar men Iskandarko'l, Shahrисabz, Xiva va Qo'qon harbiy safarlarida marhum K.P.Kaufman huzurida kolleksioner sifatida qatnashganman. Xalq kutubxonasiagi qo'lyozmalar va Fanlar akademiyasida saqlanayotgan lingvistikaga doir materiallar mening o'sha harbiy safarlarda qatnashganligimni isbotlovchi materiallardir. Menim qo'limda Xiva xonlarining to'liq tarixi, sharq qo'lyozmalari, qadim zamonlardan tortib to 1873-yilga qadar bo'lgan voqealarni bayon

qilgan qo'lyozmalar bor. Lekin bularning hammasi Peterburgda saqlanmoqda va shu sababdan men ular haqida ma'lumot berolmayman”[3].

Demakki, Vilnoda ishlayotgan A.L. Kunning o'zi yuqorida ta'kidlab o'tgan, to'plagan materiallari Sankt-Peterburgda qolgan edi. Afsuski o'z oldiga katta rejalar qo'yib, sharqshunoslik bo'yicha tadqiqotlar olib borishni orzu qilgan olim 1888-yil 24-oktyabrda 48 yoshida Vilno shahrida vafot etadi. Uning vafotidan keyin Sankt-Peterburgdagi kvartirasida saqlanayotgan shaxsiy arxivining anchagina qismi Fanlar Akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Osiyo muzeyi ixtiyoriga, shuningdek Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi moddiy madaniyat tarixi institutiga topshiriladi.

Shu tariqa sharqshunos A.L.Kun to'plagan Xiva xonligi arxiv uchta ilmiy ma'rifiy tashkilotda:

1. Saltikov Shchedrin nomli xalq kutubxonasida;
2. Osiyo muzeyida;
3. Sankt-Peterburgdagi sharqshunoslik institutida hozirda ham saqlanyapti.

Bundan tashqari, sharqshunos A.L.Kunning ayrim shaxsiy hujjatlari, ilmiy merosiga oid ba'zi manbalar esa moddiy Rossiya madaniyat tarixi institutining 19-sonli fondida saqlanmoqda. Akademiyaga qarashli “Melanj Aziatik” jurnali 1890-yilda sharqshunos A.L.Kun kolleksiyasidagi qo'lyozmalarning ro'yxatini e'lon qiladi.

A.L.Kun hayoti va faoliyatiga nazar tashlab shuni aytish mumkinki, u sharqshunos sifatida 1873-yilgi yurishda to'plagan ma'naviy boyliklar, xonlik arxiv hujjatlarining to'planib Rossiya imperiyasi poytaxtiga olib ketilishiga boshchilik qildi. Ammo 1876-1882-yillarda Turkiston general gubernatorligida, keyin esa Vilno shahrida maktablar noziri bo'lib ishlagani bois, garchi mutaxassisligi sharqshunos bo'lsada Xiva xonligi arxiv hujjatlarini to'liq tadqiq qilishga ulgurmadi.

Faqatgina Xivadan olib ketilgan hujjatlarni tavsiflab, ularni ikki guruhga ajrata oldi:

1. Xonlikning daromadlari va xarajatlariga oid daftarlari hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlari;
2. Xiva xonlarining boshqa davlat rahbarlari bilan yozishgan diplomatik yozishmalari va xatlari.

Shu tariqa yetuk sharqshunoslар tomonidan istiqbolli tadqiqotchi sifatida e'tirof etilgan A.L.Kun aynan o'z mutaxassisligi bilan bog'liq bo'lмаган muassasalarda ishlagani sabab, yuqoridagi hujjatlarni tadqiq qilishga ulgurmay 48 yoshida vafot etadi. O'ylaymizki, agarda u uzoq umr ko'rib, yana hayot kechirganida o'zi olib kelgan arxiv hujjatlarinigina emas, ko'plab qo'lyozma asarlarni ham tadqiq qilish bilan shug'ullanardi.

A.L.Kun Xivadan olib kelib o'z uyida saqlagan va vafotidan keyin Sankt-Peterburgdagi Osiyo muzeyiga topshirgan hujjatlarning bir qismini sharq qo'lyozmalari bo'yicha yetuk mutaxassis, 1880-1916-yillarda 36 yil ushbu muzeyga rahbarlik qilgan sharqshunos K.G.Zaleman tomonidan ro'yxatga olingandi. Lekin qo'lyozmalarning mazmuni o'qib aniqlanmadidi.

Chunki qo'lyozmalar Xiva xonlari arxivini ekanligini, professor Muhammadjon Yo'ldoshevning aytishi bo'yicha, “hech kim bilmadi”. Shundan keyin Osiyo muzeyida saqlanayotgan ushbu materialarning ayrimlari Fanlar Akademiyasining Peterburgdagi Sharqshunoslik institutiga o'tkazildi va mazmuni o'qib aniqlanmagan qo'lyozmalar tariqasida keyingi vaqtlargacha ro'yxatga olinmay, fondda saqlanib kelaverdi.

Bu qo'lyozmalar Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida uzoq vaqt saqlandi va shu davr ichida ushbu materiallar bilan ko'pgina atoqli olimlar yuzaki tanishib chiqdi.

Bunga A.L.Kun to'plagan arab yozuvidagi qo'lyozmalarni o'qish juda qiyin bo'lganligi, qolaversa 20 asrning boshidagi davr alg'ov-dalg'ovlari, ijtimoiy siyosiy vaziyatning yomonligi tufayli sharqshunoslarning ko'pchiligi A.L.Kun to'plagan qo'lyozma va hujjatlarga e'tiborsiz qaraganligi sababli, ularning mazmuni aniqlanmay qolaverdi. Shu tarzda bu materiallarning mazmunini aniqlash uzoq vaqt largacha birinchi darajadagi ilmiy muammo bo'lib keldi.

Shu o'rinda A.L.Kun tomonidan 1873-yilda to'plangan Xiva xonligi arxiv hujjatlari to xonlik tashkil topgan 1511-yildan, yoki poytaxt Urganch shaharlaridan keyin Xivaga ko'chirilgandan buyon saqlanayotgan to'liq hajmdagisi edimi degan savol tug'iladi.

Rossiya sharqshunoslari orasida yetuk arabshunos, turkshunos sifatida tanilgan, shuningdek o'zbek, tojik, arab va fors tillarini bilgan va mahalliy aholi orasida Iskandar to'ra deya nomlangan Aleksandr Lyudvigovich Kunning o'zi bu haqda shunday yozgandi:

“..Hujjatlar to'plami har qancha qiziqarli bo'lsa ham, lekin bu hujjatlarning fan uchun bo'lgan ahamiyatini e'tiborga olganda: birinchidan, shu hujjatlarning to'liq emasligiga, ko'p hujjatlar yo'q bo'lib ketganligiga va noma'lum kishilar olib ketganligiga va ikkinchidan, bu hujjatlar faqat keyingi vaqt larga doir qiziqarli materiallardan iborat bo'lganligiga afsuslanmaslik mumkin emas.

Bu holning ikkita sababi bo'lishi mumkin: ruslar yaqinlashib kelayotganligi to'g'risida xabar olinishi bilan saroyda umumiylar sarosimalik boshlangan, ikkinchidan, musulmon xonliklarida yozma hujjatlarni saqlash odati yo'q edi. Har bir xon o'lganidan keyin saroyda bo'lgan mulkning hammasi merosxo'rlar o'rtasida taqsimlanib olinar edi va davlat arxivlari yoki shunday hujjatlar saqlanadigan boshqa joylar xonliklarda bo'lgan emas”[4].

Tabiiyki, A.L.Kunning o'zi topgan arxiv to'g'risida bergen ma'lumotlari shubhasiz to'g'ridir. Ya'ni, ana shu ma'lumotlaridan ko'rindan, 1873-yildagi Xiva bosqinida A.L.Kun to'plagan arxiv hujjatlari xonlikning asrlar davomidagi to'liq davlat hujjatlari emasdi.

1868-1882-yillarda 14 yil O'rta Osiyoda xizmat qilgan A.L.Kun yetuk sharqshunos bo'lsada, Turkiston general gubernatorlik mahkamasida ishlagani bois ilmiy faoliyat bilan tadqiqotchi sifatida shug'ullanmagan. Shu bois uning ba'zi fikrlari, jumladan, sharq xonliklarida hujjatlarni saqlash odati yo'q, degan fikrlariga qo'shilish qiyin.

Chunki, 1830-32-yillarda Olloqulixon Toshhovli saroyini qurdirgan paytida xonlik arxivini muhofaza qilishga alohida ahamiyat berib, maxsus bo'lmlar ajratadi. Bayoniying “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida yozilishi bo'yicha, arxiv hujjatlari xazinada saqlanib kelgan. Saroyda arxiv materiallari alohida binoda, maxsus ajratilgan kishilarning nazorati ostida tartib bilan juda puxta saqlanib kelgan bo'lib, har bir daftar raqamlangan.

Ehtimol, qadimgi davrlarda xonliklarda hujjatlarni saqlash an'anasi bo'lmagandir. Sharqda arxivlarni saqlash odati bo'lmagan edi, degan fikr o'sha vaqtida ko'p tarqalganligi sababli, 1873-yilgi Xiva yurishi paytida A.L.Kun saroyda yuz bergan tartibsizlik ta'siri ostida qolib, topilgan hujjatlar bilan chuqurroq tanishishga ulgura olmay shu fikrni aytganligi ehtimoldan uzoq emas. Qolaversa, biz tilga olgan A.L.Kunning maqolasi 1874-yilda chop etilgandi.

Bundan tashqari, Kaufman armiyasi shtabida xizmat qilgan A.L.Kun hujum qilib borayotgan qismlarning oldingi safida emas edi. Ana shuning uchun ham u saroyga birinchi bo'lib kirmasdan, balki birmuncha keyinroq kirgan, bu paytda esa, xon va uning mulozimlari

qo'chib ketgan, saroyning ichiga yuzlab kishilar kirib chiqqan edi. Ana shu sababli xon va uning ayonlari tashlab ketgan saroyga tasodifiy kishilar "saroydagi sarosimalikdan" foydalanib, u yerda qimmatbaho narsalar topish maqsadida yoki boshqa maqsadlar bilan kirib-chiqib yurganlar. Shuning uchun ham A.L.Kun qo'liga tushgan arxiv haqiqatan ham betartib holda bo'lgan va bir qismi talonchilik natijasida yo'qolgan bo'lishi mumkin.

Xo'sh, yo'qolishga sabab nimada?

Bu haqda keyinchalik Xiva xonlar arxivini tadqiq qilgan professor Muhammadjon Yo'ldoshev shunday fikr bildiradi: ma'lumki, vaqf yerlar, mol-u mulk da'vosiga doir qozi yoki boshqa amaldorlarga tegishli hujjatlar ham xon saroyida saqlangan. Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida yozilishi bo'yicha, saroyni zabit etgan Rus generali Golovachyov otryadi saroydan chiqib ketganidan keyin, bir to'da olomon saroyga bostirib kirgan va Golovachyovdan qolgan narsalarning hammasini olib ketgan.

Xo'sh, olomon tomonidan yo'qotilgan narsalar, yoki hujjatlar nima bo'lishi mumkin? Ularni yo'qotishdan kim manfaatdor edi?

Manfaatdorlar faqat saroydagi kundalik xarajatlar yozilib borgan va eng keyingi vaqtлага doir bo'lgan hujjatlar bilan yoki daromadlar to'g'risidagi, yoxud boshqa mansabdor shaxslarning daromadlari to'g'risidagi hujjatlar bilan, yo bo'lmasa soliq to'lovchilarning ro'yxatlari bilan qiziqishlari mumkin edi. Biror narsani olishga yoxud biror hodisaning izini yo'q qilib yuborishga intilgan, o'zlarining fosh bo'lishlaridan qo'rqqan manfaatdor kishilargina (yoki shu kishilarning yollanma odamlari) saroya ro'y berayotgan voqealardan foydalanib qolmoq uchun mazkur hujjatlarni o'g'irlab ketishlari mumkin edi. Bunday manfaatdor kishilar o'zlarining qadim o'tmishdagi bobolariga doir xarajatlar yoki daromadlar ma'lumotlariga qiziqmas edilar. Ular ko'proq o'zlariga doir ma'lumotlar bilan, o'z hamshaharlari, hamqishloqlariga yoki qarindosh-urug'lariga doir materiallar bilan qiziqardilar.

Masalan, Xiva arxivida Qushbegi tomonidan aholidan olingan solg'ut (yerdan olinadigan pul solig'i) ro'yxatining yo'qligi tasodifiy bo'lmasa kerak. Shuningdek, A.L. Kun to'plagan A-257-raqamli qizil charm muqovali daftarning ayrim varaqlari yulqib olingan, yozuvsiz toza sahifalarni esa harbiy safar qatnashchilaridan biri kundalik xotiralarini yozib borish uchun ishlatgan.

Arxivdagi hujjatlarning tili hozirgi o'zbek adabiy tiliga kam o'xshash bo'lib, daftarlarda shartli so'zlar bilan yozilgan ma'lumotlar ko'p. Chunki bu ma'lumotlar daftarlarga tadqiqotchilarning o'qishi uchun yozilmasdan, balki tor doira kishilar uchun bitilardi. Bu daftarlarni yozgan mirzolar o'zları yozgan yozuvlar xonning shaxsiy mahkamasi yoki biror bo'limdagi sirlardan voqif bo'lmashlik uchun, hatto o'z zamondoshlari yoxud sheriklari ham o'qiy olmaydigan yozuvlar bo'lib chiqishiga harakat qilganlar. Ya'ni, xonlik hujjatlari sir saqlanishi uchun atayin o'zlarigina o'qiy oladigan qilib yozishgan. Boshqalar esa ularning yozuviga tushunmagan.

O'zi to'plagan hujjatlarni to'plab dastlab ular bilan tanishgan A.L. Kun bu haqda shunday yozgandi: "Bundan ham chalkashroq yozuvni topish qiyin. Daftarlarda nimalar yozilganligini boshqa devonlardan (kotib-mirzolardan) iltimos qilganimda ular yozuvga tushunmay o'qib bera olmadilar". Aynan, shu sababdan ham hujjatlar A.L. Kun tomonidan Sankt-Peterburgga olib ketilib muzey va xalq kutubxonasiga topshirilgach, ancha vaqtgacha yozuvlarga tushunish qiyinligidan Xiva xonligi arxivini tadqiqotchilari e'tiboridan chetda qolib ketaverdi.

**Natija.** Garchi 1873-yildagi Rossiya imperiyasi bosqinida ishtirok etsa-da, A.L.Kun sharqshunos sifatida Xorazm tarixi uchun benihoya ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlarini saqlab qoldi. Ularni to'plab, Toshkentga, keyin Sankt-Peterburgga olib ketdi. Aynan ushbu noyob hujjatlarning dastlabki tavsifi, tahlili va tadqiqini ham A.L.Kun bajardi. Shu bois uning o'z kasbiga, mutaxassisligiga fidoyiligi Xorazm tarixi uchun ahamiyatli bo'ldi.

**Xulosa.** A.L.Kunning Xorazmdan to'plab olib ketgan kolleksiyasi sharqshunoslik uchun chinakam bebaho ma'naviy boylik edi. Bu ma'naviy boylikdan unumli foydalanish va tadqiq qilish A.L.Kunga, afsuski uning vafotidan keyin ikkinchi bo'lib Pavel Pyotrovich Ivanovga (1893-1942) va uchinchi Muhammadjon Yo'ldoshevga nasib qildi. Ushbu olimlar, avvalo sharqshunos A.L.Kunning fidoyiligi esa fan va jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Shu bois ham ularning hayoti, faoliyati va yaratgan asarlari tarixning yorqin sahifalari bo'lib qoldi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. S.Matkarimova, U.Bekmuhammad "Moziy sirlarini izlab", "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2024-yil.
2. A.L.Kun "Xiva safari vaqtida qilingan ilmiy ish", "Turkestanskiye vdemosti", 1873-yil 18-dekabr.
3. S.Matkarimova, U.Bekmuhammad "Moziy sirlarini izlab", "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2024-yil.
4. А.Л.Кун "Поездка по хивинскому ханству в 1873 г" Известия Русск. Географ. общества, т,X, СПБ, 1874, 58 бет.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 2 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).